

WORDLY KNOWLEDGE

ONLINE KONFERENSIYA

Mardanova Gulshan
Samarqand davlat universiteti adabiyotshunoslik
yo‘nalishi 2-bosqich magistranti

O’ZBEK SHE’RIYATIDA DINIY-MA’RIFIY SHE’RLARDA ILM-MA’RIFAT G‘OYALARINING YORITILISHI

Annotatsiya : Ushbu maqolada o‘zbek she’riyatida arbain an’anasida ijod qilgan adiblar ijodida ilm-ma’rifat g‘oyalari targ‘ib qilingan she’rlar tahlil qilingan.
Kalit so‘zlar: ilm, olim, islom, iymon, ma’rifat, hadis, din, olim, oxirat, hayot .

Abstract: This article analyzes the poems in which the ideas of knowledge and enlightenment are propagated in the works of writers who created in the tradition of Arbain in Uzbek poetry.

Key words: science, scholar, Islam, faith, enlightenment, hadith, religion, hereafter, modesty

Ma’lumki, islom olamining muqaddas manbalaridan biri sanalmish hadislarni she’riy usulda yoritish sharq adabiyotida, xususan, o‘zbek adabiyotida keng o‘rin egallaydi. Shoirlar eng sara hadislarni qirqtasini saralab olib, uni she’riy usulda yoritganlar. Hadislar turli mavzularda bo‘lib, shoirlar jamiyat hayotida eng

muhim deb hisoblagan hadislarni she’riy usulda yoritishga harakat qilganlar. Iymon, islom, ilm, ota-ona, qarindosh urug‘chilik, ota-ona va farzand munosabatlari, odob-axloq masalalari shular jumlasidandir. Ular orasida ilm-ma’rifatni ulug‘lab, ularni targ‘ib etishga qaratilgan she’rlar alohida ahamiyatga ega. Quyida shu haqida fikr yuritilgan.

Alisher Navoiyning quyidagi misralarini tahlil qilamiz:

Ey xiradmand olimeki, sanga
Ilmdin ro‘ziy[1] ayladi sone[2].
Kishi o‘rgansa qilmag‘il mahrum,
Yoki naf olsa, bo‘lmag‘il mone.

Misralarni tahlil qiladigan bo‘lsak, quyidagicha ma’no ifodalaydi:

Ey donishmand olim, senga
Yaratgan ilmdan rizq ato qildi.
Kishi o‘rgansa uni mahrum qilma,
Yoki ilmidan manfaat olsa, unga to‘siq bo‘lma.

Navoiy ilm haqidagi “Al-ilmu la yahillu manhu” (Ilmda baxillik yo‘q) hadisiga she’riy sharh sifatida yuqoridagi she’rni yozgan. Shoir “ey donishmand olim”, – deya nido san’atidan foydalanib ilmli kishilarga murojaat etadi. Alloh bandasiga rizqni ilmi orqali bergan ekan, uni shu ilm talabgorlaridan yashirmaslik – xasislik qilmaslikka chorlaydi. Kimdir shu ilm orqali foyda hosil qilsa, unga to‘sqinlik qilmaslikka chaqiradi. Bu fikrlar asrlar oshsa-da, hamon o‘z qadr qimmatini yo‘qotmagan.

[1] Navoiy asarlari lug‘ati. G‘ofur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent –1972.
[2] Navoiy asarlari lug‘ati. G‘ofur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent –1972.

Nodira Afoqovaning “Muhammad (s.a.v.) dedilar…” to‘plamidan o‘rin olgan ushbu to‘rtlik ham aynan ilm targ‘ibiga bag‘ishlangan:

Dedilar: Dil mulki – chaman yo bog‘dir,
Unda iymon o‘sar – misli og‘ochdir.
Hayo yaproqlari, ilm mevasi
Birla bezatmassan ul yalang‘ochdir.

Ushbu to‘rtlik “Iymonning yaproqlari – hayo, mevasi – ilmdir” hadisiga yozilgan she’riy sharh hisoblanadi. She’rda inson dili chamanga – bog‘ga, iymon esa unda o‘suvchi daraxtga , hayo yaproqqa, ilm esa mevaga qiyos etilmoqda. “Hayo iymondandir” deya bejiz aytilmagan. Demak, inson avvalo o‘zida hayoni mujassamlashtirishi va albatta ilm egallashi kerak ekan. Ilm ham iymon sharti hisoblanadi. Bu esa har bir musulmonning o‘qib, ilm egallashga bo‘lgan ishtiyoqini oshirishga xizmat qiladi, desak xato qilmagan bo‘lamiz. Islomning birinchi sharti iymon hisoblanishini hisobga olsak, ilm olish iymonni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

Ushbu to‘plamga kiruvchi quyidagi to‘rtlik Olim kishi va uning obid (ibodat qiluvchi) dan ustunligi haqida so‘z borgan:

Olim-u obidkim – qaysi ustunroq,
Qay biri Allohga ko‘proq yoqqusi.
Dedilar: qaragin o‘n to‘rt kunlik oy
Birla yulduzlardir buning taqqosi.

Olim bu – ilmning biror sohasini mukammal egallagan shaxs , obid esa toat-ibodatni kanda qilmaydigan xudojo‘y, taqvodor kishi. Demak, olim kishining martabasi obid kishidan balandroq ekan. Buning taqqosi sifatida o‘n to‘rt kunlik oy va yulduzlar keltirilgan. Bu g‘oyat ajoyib taqqos. Demak, Alloh nazdida olim kishining martabasi obid kishidan ustunroq ekan. Obid kishi ibodati orqali Allohga

yaqinlik hosil qiladi, va bu ibodatining faqat o‘zi uchun dunyo hayotida farovonlik, oxiratida esa go‘zal jannat ta’masidan umid qiladi. Olim kishi esa o‘zi o‘rgangan ilm orqali Yaratganni ko‘proq taniydi, uning mo‘jizaviy qudratiga chin qalbdan iymon keltiradi, shuningdek, o‘z ilmini boshqa toliblarga o‘rgatish orqali ikki karra savob hosil qiladi. Zero har qanday ilmni mukammal egallagan kishi bu mukammallikning buyuk yaratuvchisi borligiga iymon keltiradi.

Ilm targ‘ibiga bag‘ishlangan she’rlar A.Xojiahmadning “Jannat kaliti” to‘plamiga kiritilgan she’rlar tarkibida ham ko‘plab uchraydi. Qur’onning ko‘p oyatlarida, hadislarda mo‘min-musilmonlarning bilimli, o‘qimishli bo‘lishiga da’vat, ilmning inson hayotidagi o‘rni, uning dinni mustahkamlashga ta’siri haqida juda ko‘p fikrlar mavjud. “Bir soatlik ilm o‘rganish kechasi bilan nomoz o‘qib chiqqandan afzaldir. Bir kun ilm o‘rganish uch oy ro‘za tutgandan yaxshiroq” hadisi adib tomonidan quyidagicha sharhlangan:

Bir soat ilm olish Alloh nazdida,
Tun bilan qilingan nomozdan afzal.
Bir kun ilm o‘rganmoq erur,
Ro‘za tutmoqlikdan uch oy mukammal.

Hadis to‘rt misralik she’rda chiroyli tarzda badiiy ifoda etilgan. Demak, bir soat foydali ilmni egallash Allohning nazdida tun bilan nomoz o‘qigandan afzal bo‘lsa, bir kunlik ilm olish uch oylik ro‘za tutmoqdan afzalligi shu qisqagina to‘rtlikda ifodalangan. Bu to‘rtlik ham yoshlarda ilm olishga intilish ishtiyoqini oshirishga muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilm amali bilan ahamiyatli. Ilmli bo‘lgan kishi unga amal qilishni ham bilmog‘i kerak.

O‘rgangan ilmingga amal qil har dam,
Rioya qil uning da’vatlariga.
Ilmni hikoyat qiluvchi bo‘lma,

Shukr qil hamisha ne’matlariga.

A.Hojiahmadning yana bir she’rida shunday misralar bor:

Yig‘ilgan ilmni yashirmak – xato,
Chatoq erur xasis olim ishlari.
La’natlaydi uni har narsa, hatto
Dengiz baliqlari, osmon qushlari.

Alisher Navoiyning yuqoridagi she’ri mazmuni bilan mantiqan bog‘liq. Ikkisida ham xasis olim tanqidga olingan. Bu she’rda ham ilmda xasislik qilmaslik kerakligi aytilgani holda Bunday olimni barcha narsa: hatto dengizdagi baliqlar, qushlar ham la’natlashi haqidagi misralar orqali she’rning ta’sirchanlik va badiiy qiymatini yanada oshirgan. Ilmni o‘rganuvchlarga bermaslikni sahih hadislarda fosiqlikka tenglashtirish bejiz emas.

Sirojiddin Sayyidning “Yaxshilik eskirmagay” to‘plamiga kiritilgan she’rlarda ilmli kishilar va ularning martabasi haqida so‘z borgan:

Ilm-u ma’rifatli elning iqboli,
Hargiz zalolatga giriftor bo‘lmas.
Ezgu ilmlarni o‘rgatgan zotlar,
Ikki dunyoda ham aslo xor o‘lmas.

Bu kabi quyma satrlar Sirojiddin Sayyid ijodida juda ko‘plab uchraydi.

Ushbu she’r o‘n ikki satrli bo‘lib, “Foydali ilmlarni o‘rgatuvchi odamning gunohi kechirilishini so‘rab har bir narsa: hatto dengizdagi baliqlar ham istig‘for aytadilar” hadisining she’riy sharhi hisoblanadi.

She’rda yana shunday satrlar bor:

Farzandlar shul sabab topgaylar kamol,
Yurt shunday zotlarga iftixor aytar.
Gunohlarin so‘rab dengizlardagi
Baliqlar ham hatto istig‘for aytar

Yuqorida A.Hojiahmadning bir she’rini tahlil qilganimizda unda ilmda hasis bo‘lgan olimga hatto dengizdagi baliqlar ham la’nat aytishi haqidagi jumlalarga diqqat qilgan edik. Sirojiddin Sayyidning ushbu she’rida esa ezgu ilmlarni o‘rgatgan zotlarga dengizdagi baliqlar ham gunohi kechirilishini so‘rab istig‘for aytishini ajoyib satrlarda aks ettiradi.

Hozirgi kunda ilm-ma’rifatni rivojlantirish, yoshlarni kitob o‘qishga qiziqtirish yo‘lida yurtimizda qator islohatlar olib borilmoqda. Mustaqillikdan so‘ng islom dinini chuqurroq o‘rganishga, va yillar davomida “bo‘g‘ib kelingan” e’tiqodimizni tiklashga imkoniyat tug‘ildi.Yurtboshimiz tomonidan aytilgan quyidagi fikrlar buning yorqin dalilidir: “Alhamdulillah, hammamiz musulmonmiz. Biz juda ko‘p joylarda jaholatga qarshi ma’rifat, islom dinini o‘rganish, o‘rgatish tashabbusi bilan chiqyapmiz. Islom – bu faqat nurli hayot”.

Darhaqiqat, ilm-ma’rifat rivojlangan jamiyatda jinoyatlar, turli huquqbuzarliklar sodir bo‘lmaydi. Yurtda tinchlik, osoyishtalik hukm suradi. “Olloh taolo oyati karimasida: “Olloh taolo sizlarning orangizda iymon keltirganlarni va ilmni yuksaltirganlarni bu dunyoda yarlaqab,martabasini ulug‘ qilg‘aydir, oxiratda jannatga kirmoqlikni nasib etgusidir, Olloh taolo qilayotgan ishlaringizdan xabardordir”, – deyilgan. Yana boshqa oyati karimada esa: “Yo rabbiy, ilmimni ziyoda qilg‘aysen, deb ayt!” – deyilgan.[3]

[3] Imom al-Buxoriy. Al-Jomi’ as-sahih. Qomuslar Bosh tahririyati. Toshkent –1991.

Arbain an’anasida ijod qilgan adiblar ilm haqidagi hadislarni mahorat bilan she’riy usulda qayta unga badiiy joziba bag‘ishlaganlar. Va albatta, bu ishda muvaffaqiyatga erishganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1 . A. Hojiahmad. Jannat kaliti: Muhammad alayhissalomning 33 masaladagi 333 hadislariga 333 she’riy iqtibos. . – T.: “Movorounnahr” , 2016.

2.Afoqova Nodira. Muhammad (s.a.v.) dedilar… Arbain turkumi www.ziyouz.

3.Imom al-Buxoriy. Al-jomi’ as-sahih. – T.: “Qomuslar” bosh nashriyoti, 1991.

4.Sirojiddin Sayyid. Asarlar. II jild. “Sharq” nashriyoti. – T.: 2018.

5.Arbain hadis. Imom an-Navaviy. “Sharq” nashriyoti. – T.: 2018.